



## “GULISTON” ASARIDAGI HIKOYATLARNING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI O’RNI

**Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi**

*Qo’qon universiteti Ta’lim kafedrasi  
o’qituvchisi,  
O’zRFA doktoranti*

**Temurjonova Mohinaxon Ali-zoda qizi**

*Qo’qon Universiteti  
Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Sa’diy Sheroziyning Guliston asaridagi yosh avlod tarbiyasidagi o’rni haqida ma’lumot berilib o’tilgan. Sa’diy Sheroziyning Guliston asarini milodiy 1258-yilda yozilgan, bu asar 8ta bobdan iborat bo’lib, bu asarda podshohlar odati, darveshlar axloqi, qanoatning fazilatlarini, sukut saqlashning foydali bayoni, ishq va yoshlik, zaiflik va keksalik, tarbiyaning ta’siri, suhbat bayoni haqida juda ko’p e’tibor berilib o’tilgan. Guliston asarinining birinchi bobida har-xil xarakterda podshohlar haqida ma’lumot yozilgan. Ikkinchi bobida esa darveshlarning axloqi faqirligi ko’rsatib o’tilgan. Guliston asarining har bir bobining uziga yarasha xususiyatlari bor. Har bir bobi juda qiziqarli qilib yozilgan.

**Kalit so’zlar:** Guliston, Sa’diy Sheroziy, yosh avlod, tarbiya, darvesh, shoir, podshoh, vazir, suhbat qoidalari.

### **Kirish.**

Mamlakatimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O’g’il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma’naviyatli bo’lib ulg’ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. O’z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatim shu: ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o’tmasin! Yoshlik-umrning eng bebaho davri. Ilm o’tda yonmaydigan, suvda chukmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev so’zlari.<sup>1</sup> Yoshlar har bir millatning kelajagidir. Bu esa yoshlarga jiddiy ahamiyat berilishi lozimligini bildiradi. Har bir shaxsning kim bo’lishligi yoshlik paytidan bilina boshlaydi. Yoshlik paytida shakllanib qolgan sifatlar insonga butun umri davomida hamroh bo’ladi. Shuning uchun jamiyatda yoshlarning odobli, aqlli, halol, tarbiyali inson bo’lishlari uchun harakat qilinadi.

### **Asosiy qism.**

Sharqu g’arbda Sa’diy, Shayx Sa’diy nomi bilan shuhrat qozongan, ko’p xalqning ulkan shoirlari o’zlariga ustoz deb bilgan mutafakkir san’atkorining asl

<sup>1</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shvkat mirziyoyevning so’zlari: O’z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatij shu: ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingizni ham bekor o’tmasin! Yoshlik-umrning eng bebaho davri. Ilm o’tda yonmaydigan, suvda chukmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!



nomi Musharaffiddin Ibni Muslihiddin Abdullohdir. U 1184-yilda Eronning qadimiy tamadduni o'chog'i Sherozda davlat xizmatchisi oilasida dunyoga kelgan. Sa'diy sheroziy "Guliston" asarini milodiy 1258-yilda yozgan. "Guliston" asari 8 bobdan iborat. "Guliston"dagi har bir hikoya qissadan hissa shaklidagi she'r -pandlar bilan yakunlanadi. Ba'zan, baytlar nasr tarkibida ham keladi. Yozuvchi ularda ilm o'rganish, mehnatsevarlik, ta'zim-tavoze, kattalarga hurmat, kichiklarga izat, otanalarga e'tibor, til va muomila, so'zlash odobi, shirin so'xanlik va boshqa juda ko'p masalalarda ulkan murabbiy, mutafakkir sifatida pand nasihat beradi. Ayni choqda yozuvchi sudxo'rlik, tovlamachilik, tamagirlik, tanballik, yolg'onchilik, g'irromlik, ikkiyuzlamachilik, qaroqchilik, firibgarlik singari g'ayriinsoniy illatlarni ayovsiz la'natlaydi va pokiza kishilarni bunday yaramasliklarga qarshi kurashishga chorlaydi. Bu ta'limiy asarda yozuvchi o'z davridagi eng muhim va katta-katta siyosiy, iqtisodiy voqealarni aks ettirar, axloqiy normalarni talqin etar ekan, o'sha davr kishilarining xilma-xil obrazlarini yaratadiki, bu obrazlarning umumlashtiruvchi kuchi ham, ta'sir doirasi ham shoirning o'z yurti va davri chegarasidan chiqib ketadi. Uning ilg'or orzulari umumbashariyat orzulari bilan hamohang. Shuning uchun ham bu asar jahon adabiyoti durdonalari qatoridan joy olgan. Sa'diy o'z zamonining yetuk pedagogi, dono, insondo'st, murabbiy shoiri, chuqur psixologik olimi bo'lgan. Hamma narsa faqat harakat va jasorat bilan qo'lga kiritilishi mumkinligi "Guliston"ning ko'p hikoyatlarida lo'nda qilib ko'rsatib berilgan:

*Rizqingdan ortiqni yeb bo'lmasa ham,  
Talabda bo'lmag'il dangasa, beg'am.  
G'avvos nahang og'zin o'ylasa agar,  
Qo'lga kiritolmas hech durru gavhar.  
Sher nima ovlay olur toki inidan chiqmay,  
Changaliga ne Tushar yerda yotsa qarchig'ay.*

Shuning uchun ham kishi qadrini, insonning insoniylik sharafini yerga uradigan tama, hasadva shunga o'xshash past odatlarni qattiq qoralaydi.

*Olib borma shahga ta'mali so'zing,  
Ta'mani yuqotganda shahsan o'zing.  
Jirkanchdir xor bo'lib topilgan ovqat,  
Qozom to'lur, ammo or bilan faqat.*

Insondagi yomon xislatlarni orttiradigan, uni hatto yolg'onchilik, o'g'rilikka boshlaydigan, dag'dag'a, janjal chiqarib, inson sharafini pastga uradigan mayxurlikni ham qattiq qoralaydi. "Guliston" asari 8 bobdan iborat:

*Birinci bob-Podshohlar odati bayoni.*





*Ikkinchi bob-Darveshlar axloqi bayoni.*

*Uchinchi bob-Qanoatning fazilat bayoni.*

*To'rtinchi bob-Sukut saqlashning foydali bayoni.*

*Beshinchi bob-Ishq va yoshlik bayoni.*

*Oltinchi bob-Zaiflik va keksalik bayoni.*

*Yettinchi bob-Tarbiyaning ta'siri bayoni.*

*Sakkizinchi bob-Suhbat qoidalari bayoni.*

Birinchi bob-Podshohlar odatlari bayoni 36-hikoyasi bor.

Har bir hikoyasida podshohlarga xos har-xil xarakterlar keltirib o'tilgan. Masalan: Uchinchi hikoyasida bir ko'rxsiz shahzoda haqida yozilgan.

Qadim zamonda bir pakana ko'rxsiz shahzoda bo'lgan ekan. Bir kuni otasi uni mensimay tahqir nazar bilan qaradi. Shahzoda buni payqab qolib otasiga shunday dedi. Har nimaning ham baland bulgani bilan qomati, bulavermas ammo qiymatida. Quy kichik bulishiga qramay, halol, fil kata bo'lsada, murdordir. busuzlarni eshitgan ota kulib uni suzi arkoni davlatga maqul keldi, birodarlari esa ulguday xafa bo'ldi. Bir kuni podshohning yurtiga qator dushmanlar keldi. Ularning qushinlari ko'p edi uni ko'rgan lashkarlar endi qochmoqchi pakana podshoh shunday dedi. "Hoy azamatlar ayollar kiyimini kiyimaylik desanglar, g'ayrat shijoat ko'rsatinglar" dedi. Uning bu so'zi lashkarlarga kuch bag'ishladi va g'alaba qozondilar. Podshoh ug'lining bag'riga bosib boshu ko'zidan o'pdi. Shundan keyin podshoh ug'liga bo'lgan ishonchi kun sayin oshib bordi va toju taxtni unga topshirdi. Buni kurgan akalari uning ovqatiga zahat qushishdi. Buni holni shahzodani singlisi kushkidan ko'rib daricha qatib qoldi va shahzoda daricha qatib qolganini ko'rib bu voqeaga tushundi, Bu xabar podshohning qulog'iga yetib bordi va ug'illarini huzuriga chaqirib tanbeh berdi, shundan keyin mamlakatning har viloyatlarini ajratib berdi. Shu hikoyani o'qib men shuni payqadimgi hamma narsa chiroyga bog'liq mas balki insonning qalbida, balki ilmida, vbalki kuchidadir.

Ikkinchi bob-Darveshlar axloqi bayoni 33-hikoyasi bor.

Bu ikkinchi bobda darveshlarning xulq atvorlari va o'g'riliklari keltirib o'tilgan. Masalan: 9-hikoyasida bir darveshni pulga muxtojlilik keltirib o'tilgan.

Bir darvesh qattiq muhtojlikga tushib qoladi va destining gilamini ug'irladi. hokim uning qulini kesishni buyirdi. Gilamning egasi darveshga rahmi kelib: "Men uning gunohini kechirdim", dedi. Hokim dedi: "Sen kechirganing bilan shariat qonuni kechirmaydi!" Gilam egasi dedi: "To'g'ri aytasiz, lekin vaqf molini o'g'irlagan odamning qo'lini kesmaydilar. Darveshlardagi hamma narsa muhtojlarning vaqfidir". Hokim ug'rini afv etdi va shunday dedi senga olam torlik



qildimiki, borib-borib o'z yaqin do'stingning uyiga o'g'rilikkga tushibsan? Darvesh dedi: "Ey hokim, eshitmaganmisanki": "Dushman eshigini qoqqandan ko'ra do'st qoqlagan yaxshi, deydilar".

*Qiyin ko'nga qolgan chog'da ruhing bo'lmasin tushkun,  
Dushmanlarning terisidan do'stinga bichgil po'stun.*

Uchinchi bob-Qanoatning fazilati bayoni 21-hikoyasi bor. Bu uchinchi bobda shoir insonlarni boru yo'qga qanoat qilishni o'rgatadi. Masalan: birinchi hikoyasida.

Bir mag'ribiy gadoy Halabdagi bazzozlik rastasida derdi: "Ey davlatmandlar! Basharti sizlarda insof-u, menda qanoat bo'lganda edi, olam tilanchilik degan gap qolmasdi".

*Davlatmand qilg'il, ey qanoat, meni,  
Chunki yuqdir sendan yaxshiroq ne'mat.  
Luqmonning murodi-sabr burchagi,  
Sabrsiz Kishida bo'lmaydi hikmat.*

To'rtinchi bob-Sukut saqlashning foydali bayoni 11-hikoyasi bor. To'rtinchi bobda shoir shuni hikoyalarida bayon etadiki gapirishdan oldin uni uylab ko'rib gapirish kerak. Sizning yaxshi gapiz ham yomon gapiz ham dushmanga foyda bo'ladi.

Birinchi hikoyasi.

Do'stlarimdan biriga dedim: "Gapirishdan o'zimni tiyishimni sababi shuki, ko'pincha gapning, yaxshi va yomon tomonlari bo'ladi, dushmanning ko'zi esa, yomondan boshqa narsaga tushmaydi". Do'stim dedi: "Yaxshini payqamagan dushman-durust".

Beshinchi bob-Ishq va yoshlik bayoni 11-hikoyasi bor. Bu bobda shoir ishq va yoshlik bayonida juda qiziqarli hikoyalar yozgan. Masalan: 9-hikoyasida.

Bir kishining guzal yosh xotini o'ldi, munkilab qolgan qaynonasi mahr yuzasidan uning uyida yashab qoldi. U odam qaynonasining vaysashidan juda bezor bo'lgan edi. Lekin mahrni topib berishga quli kaltalik qilardi shu sababli qaynonasi bilan yashahsga majbur edi. Bir kun bir necha oshna-og'aynilari uni ko'rgani keldilar. Ulardan biri dedi: "Aziz yoringning firoqida nechuk kechyapti?" U kishi javobida dedi: "Qaynonamning basharasini ko'rish mening uchun xotinimning diydorini ko'rmaslikdan ko'ra og'riqroqdir".

Oltinchi bob-Zaiflik va keksalik bayoni 8-hikoyasi bor.

Oltinchi hikoyasi.





Bir kun bolalik nodonligi bilan onamga baqirdim. Onam qattiq xafa bo'lib, bir burchakga o'tirdi-da, yig'lab dedi: "Bolaliginkni unutdingmiki, menga bunchalik qilyapsan?".

Yulbarspanja, filtan ug'liga kampir,  
Ne xush so'zlar aytib, tashladi savol:  
"Esingda bo'lsaydi gudaklik chog'ing,  
Bag'rimda yotganing murg'ak, bemajol.  
Qilarmiding menga bul kuni jafo,  
Sen sherdek yigit-u, men keksa, behol?".

Yettinchi bob-Tarbiyaning ta'siri bayoni 17-hikoyasi bor. Bu yettinchi bobda shoir tarbiya haqida juda qiziqarli hikoyalarni aytib o'tadi.

Bir vazirning takasaltang o'g'li bore di. Vazir o'g'lini bir donishmand huzuriga eltib. Shuni tarbiya qil, shoyad aqli kirib, odam bo'lsa", dedi. Donishmand vazirzodani uzoq mudat tarbiya qildi, foydasi bo'lmadi. Bolaning otasiga biro dam orqali: "O'g'ling odam bo'lmadi, meni ham aqldan ozdirdi", deb xabar beradi.

Sakkizinchi bob-Suhbat qoidalari bayoni

Umr mol-mulk to'plash uchun emas, balki, mol-mulk osuda hayot kechirish uchundir! Bir oqildan so'radilar: "Kim baxtiyoru kim baxtsiz?" Oqil dedi: "Baxtiyor-yeb-ichadi, ekadi; baxtsiz-yig'ib-yig'ib o'lib keladi".

### **Xulosa**

Sa'diy o'z zamonining yetuk pedagogi, dono, insondo'st, murrabbiy shoiri, chuqur psixolog olimi bo'lgan. Bu ulug' donishmandning keng va rango-rang ijodida biz yorqin misralar bilan bir qatorda u yashagan davrning qora tang'asi tushgan dog'larni ham ko'ramiz. Sa'diy Sheroziy "Guliston" asarini milodiy 1258-yilda yozgan. Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asari 8 bobdan iborat. Shoir bu asarini o'z hayotida ko'rgan, bilgan voqelarini bayon etib, ulardan axloqiy xulosalar chiqaradi. Undagi qisqa-qisqa hikoyalarda dunyo-dunyo ma'no bo'lgani uchun ham bu kitob jahon adabiyotining oltin fondiga kirgan. Bu asarning har bir bobini o'qigan inson o'ziga olam-olam ma'lumot oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qizi, I.M.I. (2021). Mohlaroyim nodira's skill in using a satellite. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1048-1052.
2. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In E-Conference Globe (pp.25-26)



3. Otto, M., & Thornton, J. (2023). MAKTABGACHA INKLYUZIV TA'LIM SHAROTIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 408-411.
4. Zarnigor, E. (2023). MTTDA QABUL QILINGAN "BOLAJON" VA ILK QADAM" O'QUV DASTURLARINING TA'LIM SIFATIDA TA'SIRI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 434-438.
5. Soporboyevna, M. M. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TARBİYALASHDA ABDULLA AVLONIYNING "TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" ASARINING O'RNI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 451-454.
6. Imomalieva, M. (2023). AMIRIY IJODIDA PAYG'AMBARLAR BILAN BOG'LIQ TIMSOL-TUSHUNCHALAR TALQINI. Interpretation and researches, 1(1).
7. Imomalieva, M. (2023). IMAGE OF JAMSHID JOMI IN AMIR'S CREATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 4,(12), 59-62.
8. Ikromjonovna, J. S., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA PISA TESTI NATIJALARI VA BOSHLANG 'ICH TA'LIM O 'QUVCHILARINI BU TESTGA TAYYORLASH ISTIQBOLLARI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 159-162.
9. O Maxliyoxon, J Shaxnozaxon. (2024). DRAMA AND ARTISTIC READING IN PRIMARY GRADES: Study guide. ISBN-13 : 979-8324468415 1, 142